



UDK:811.111'276.6:378.147

Durdona Azizova,
Xalqaro Nordik universiteti tayanch doktoranti
E-mail: rakhmatullaeva94@gmail.com

O'zDJTU, pedagogika fanlari doktori, DSc professor D.Isroilova taqrizi asosida

DEVELOPING FIELD-SPECIFIC LEXICAL COMPETENCE IN ENGLISH AS A PEDAGOGICAL ISSUE

Annotation

The article examines the development of occupational lexical competence in English as an important pedagogical issue in higher education. Despite having a command of general English, students experience difficulties in using professional terminology. The study is based on a mixed-methods approach that includes questionnaires, diagnostic tests, and a pedagogical experiment. The findings show that instruction grounded in professional contexts and supported by multimedia tools effectively enhances occupational vocabulary. A comparison of pre- and post-test results confirms positive progress in understanding and applying professional terminology.

Key words: Lexical competence, English for Specific Purposes, professional vocabulary, pedagogical approach, higher education, context-based learning, multimedia instruction, media resources, communicative competence, language teaching methodology, professional communication.

РАЗВИТИЕ ОТРАСЛЕВОЙ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В статье рассматривается развитие профессиональной лексической компетенции на английском языке как важная педагогическая проблема высшего образования. Несмотря на владение общим английским языком, студенты испытывают трудности в использовании профессиональной терминологии. Исследование основано на смешанной методологии, включающей анкетирование, диагностические тесты и педагогический эксперимент. Полученные результаты показывают, что обучение на основе профессиональных контекстов и мультимедийных средств способствует эффективному усвоению профессиональной лексики. Сравнение входного и итогового тестирования подтверждает положительную динамику в понимании и применении терминологии.

Ключевые слова: Лексическая компетенция, английский язык для специальных целей, профессиональная лексика, педагогический подход, высшее образование, контекстное обучение, мультимедийное обучение, медиаресурсы, коммуникативная компетенция, методика преподавания языка, профессиональная коммуникация.

INGLIZ TILIDAGI SOHAVIY LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada ingliz tilida sohaviy (kasbiy) leksik kompetensiyani rivojlantirish oliy ta'lim tizimidagi muhim pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Talabalar umumiy ingliz tilini bilishlariga qaramay, kasbiy terminologiyadan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Tadqiqot aralash metodologiyaga asoslanib, so'rovnomalar, diagnostik testlar va pedagogik tajribani o'z ichiga oldi. Olingan natijalar kasbiy kontekstlarga va multimedia vositalariga asoslangan ta'lim professional leksikani samarali o'zlashtirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Boshlang'ich va yakuniy test natijalarini taqqoslash terminologiyani tushunish va amaliy qo'llashda ijobiy o'sish mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlari: Leksik kompetensiya, maxsus maqsadlar uchun ingliz tili, kasbiy leksika, pedagogik yondashuv, oliy ta'lim, kontekst asosida o'qitish, multimedia asosida o'qitish, media resurslar, kommunikativ kompetensiya, tilni o'qitish metodikasi, kasbiy muloqot.

Kirish. Bugungi raqamlashtirayotgan va texnologiya bilan o'qitish jadallashayotgan davrda xorijiy tillarni bilish va ularni shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishda ishlatish eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham xorijiy tillarni o'qitish tizimida tub islohotlar olib borilmoqda. Xususan, ingliz tilidagi leksik kompetensiyani shakllantirish va takomillashtirish – zamonaviy til o'qitishning ustuvor yo'nalishiga aylangan. Oliy ta'lim tizimida ingliz tili bo'yicha egallanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar, jumladan leksik kompetensiya – zamonaviy ta'limning muhim maqsadlaridan biridir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-187-son 2022-yil, 20-aprelidagi qaroriga ko'ra, oliy ta'limda xorijiy tillar bo'yicha kompetensiyani baholash tizimini joriy qilish hamda zamonaviy ta'lim

texnologiyalaridan foydalanishni yanada takomillashtirish haqida alohida to'xtalib o'tilgani ham til bilish darajasi va chet tillari o'qitishda kompetensiyalar bilan bog'liq muammolarni yechishga turtki bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan, O'zbekiston Respublikasi ikkinchi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan so'ngi yillardagi qabul qilingan bir qator qarorlar va farmonlar, xorijiy tillarni o'qitishda aynan til bilish darajalari va kompetensiyalariga ham alohida to'xtalib o'tish, tillarni chuqur o'rganish, xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirib jiddiy yondashish, global rivojlanish, mehnat reserslarini ish bilan ta'minlash, tillarni kasbiy sohaga bog'lab o'qitish va insonlar davlatni rivojlantirishga investetsiya kiritish va yangi O'zbekistonni qurish uchun kasbiy yondashuvlik bilan harakat qilishga turtki bo'ldi.

Ingliz tilining sohaviiy leksikasida o'zlashma (taken) qatlam muhim o'rin tutadi. Bu qatlam tarkibida arab, fors, rus va boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar mavjud. Shuningdek, Umumiyevropa tillari bazasida yasalgan inglizcha so'zlar ham bu tilning lug'aviy boyligini tashkil etadi. Ingliz tili leksikasi zamonaviylik darajasiga ko'ra quyidagi uch asosiy qatlama bo'linadi:

1) Zamonaviy qatlam – hozirgi davrda faol qo'llanilayotgan, eskilik yoki yangilik bo'yog'iga ega I.1-jadval

Ishlatilishi jihatdan chegaralangan leksik birliklar

1	Dialektal birliklar	ma'lum bir hudud yoki mintaqaga xos so'zlar va iboralar. Masalan, Buyuk Britaniyada "baim" (bola) – shimoliy dialekt, "aye" (ha) – shotlandcha.
2	Kasb va hunarga oid terminologiya	muayyan sohalarda ishlatiladigan atamalar (tibbiyotda: diagnosis, hypertension; muhandislikda: torque, resistance).
3	Ilmiy atamalar	akademik va ilmiy doiralarda qo'llanadigan aniq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar (photosynthesis, quantum, syntax).
4	Jargonlar	muayyan ijtimoiy yoki professional guruhga xos bo'lgan norasmiy ifodalar. Ular odatda oson tushunilmaydi va guruh identifikatsiyasi uchun xizmat qiladi (gamer jargon: "noob", "lag").
5	Vulgarizmlar	adabiy til me'yorlariga zid, qo'pol yoki haqoratli ifodalar. Ular nutqda ehtiyotkorlik bilan ishlatiladi.
6	Argo –	ko'pincha norasmiy va odobsiz tilda ishlatiladigan iboralar. Argo so'zlar ko'proq emotsional bo'lib, og'zaki nutqda uchraydi ("bucks" – dollar, "bail" – ketib qolmoq).
7	Varvarizmlar	– chet tillardan kirib kelgan, ammo adabiy tilga to'liq moslashmagan birliklar. Ular odatda xorijiy talaffuz yoki yozilishi bilan ajralib turadi (fr. "rendezvous", lat. "status quo").

Yuqoridagi jadvalga asoslanib, leksik kompetensiyaga aloqador bo'lgan ayrim atamalarning ma'nolari va ishlatilishlariga to'xtalib o'tsak. Termin bu muayyan soha, fan yoki kasbga oid biror bir tushunchani aniq ifodalab beradigan maxsus so'z yoki iboradir. Agar termin atamasini kasbga bog'laydigan bo'lsak, har bir atama kasbiy soha uchun kalit vazifasini bajaradi. Masalan, macroeconomic, microfinance yokida microeconomic so'zlari kontekstda bizga iqtisodiyot sohasi va kasbga aloqadorlikni anglash uchun kalit vazifasida keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Leksik mahorat – bu til o'rganuvchining so'z va iboralarning mazmunini anglash, ularni yodda saqlash va turli nutqiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir. Bu tushuncha xorijiy tilni o'qitish nazariyasida alohida kompetensiya sifatida XX asr oxirlarida shakllangan bo'lib, bir necha yetakchi olimlarning tadqiqotlari asosida fanga kiritilgan. O'zbek metodikasining birinchi asoschilaridan biri J.Jalolov ta'kidlashicha leksikaning til o'rganishdagi asosiy maqsadi — o'quvchilarda chet tilida ravon va mazmunli nutq ko'nikma hamda malakalarini shakllantirishdir. Leksik materialni egallash odatda uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda o'quvchilar yangi so'zlar bilan dastlabki tanishuvni amalga oshiradilar. Ikkinchi bosqich mazkur leksik birliklarni nutq jarayonida qo'llay boshlashga yo'naltiriladi, ya'ni bu davr olingan bilimlarni boshlang'ich mustahkamlash bosqichi hisoblanadi. Uchinchi bosqichda esa o'rganilgan so'zlar turli nutq faoliyati turlarida qo'llanish orqali barqaror ko'nikma va malakalar tarkibida puxta o'zlashtiriladi. Rossiyalik metodist R.P.Milrud o'z tadqiqotlarida leksik mahoratni kompetensiyaga asoslangan ta'limning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, til o'rganishda lug'atni o'zlashtirish jarayoni shaxsning tashqi dunyo bilan samarali muloqotga kirishishini ta'minlovchi vositadir. N.D. Galskova esa leksik mahoratni kommunikativ kompetensiyaning asosi deb hisoblab, o'quvchining chet tilidagi so'zlarni faqat eslab qolishi emas, balki ularni kontekstda to'g'ri ishlatishi lozimligini ta'kidlaydi.

Chet tili metodologiyasi nuqtai nazaridan qaraganda leksik kompetensiyaning keng qamrovli talqinlari turli olimlar tomonidan yoritilgan. "Kompetensiya" tushunchasi ta'limning umumiy va xususiy maqsadlari hamda uning mazmuni orqali tavsiflanadi. A.V. Xutorskoy kompetensiyani ta'lim tizimi natijalarini qayta ko'rib chiqishga qaratilgan yangi

bo'lmagan so'zlar. Ular tilning asosiy leksik zaxirasini tashkil etadi.

2) Eski qatlam – istorizm va arxaizmlarni o'z ichiga oladi. Ular hozirda ham ba'zan adabiyotda yoki tarixiy kontekstda ishlatiladi.

3) Yangi qatlam – so'nggi yillarda tilga kirib kelgan neologizmlar, yangi ijtimoiy, texnologik va madaniy hodisalarni ifodalovchi lug'aviy birliklardir.

yondashuvlar asosida talqin qiladi. Uning fikriga ko'ra, kompetensiya — bu o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy tajriba, qiziqish va individual tayyorgarlikka asoslangan holda muayyan faoliyatni amalga oshirishga imkon beruvchi universal faoliyat usullari majmui hisoblanadi. Xutorskoy kompetensiyani nafaqat bilimlar to'plami, balki shaxsning murakkab faoliyati natijasida shakllanadigan integrativ sifat deb ta'kidlaydi. Kompetensiya tushunchasini tahlil qilgan olimlar uni umumiy (universal) va shaxsiy (individual) sifatlarda qaraydilar. Talabalar tomonidan tez tez duch kelinadigan muomolardan biri bu – umumiy maqsaddagi ingliz tili (General English), maxsus ingliz tili (English for Specific Purposes), va kasbga yo'naltirilgan ingliz tili (English for Occupational Purposes) oid terminologiyalarning aralshtirib ishlatilishi yokida GE da berilgan leksik birlikning EOP da qanday ma'no mazmun kasb etayotganligini anglay olmaslik. Masalan, liquid so'zi umumiy maqsadli ingliz tilida suyuqlik, oqadigan jism ma'nosida kelsa, kasbiy maxsus va kasbiy amaliy ingliz tilida – aktiv/mahsulotning pulga tez aylanishi, umuman pulga oid ma'noda ham ishlatiladi. Shunday ekan, avvalo fan o'qituvchilari leksik kompetensiyaning ahamiyatini, farqli xususiyatlarini va terminologiyasini chuqur anglab olishlari zarur. Ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, umumiy maqsadlarga mo'ljallangan ingliz tili (GE) va maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) o'qituvchilari o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Umumiy maqsadlarga qaratilgan ingliz tili o'qituvchisining (GE) vazifasi, asosan, ma'ruza o'qish bilan chegaralangan bo'lsa, ESP yo'nalishi shakllangach, ushbu tushuncha sezilarli darajada o'zgardi. Endilikda o'qituvchining roli nafaqat an'anaviy usulda dars o'tish, balki o'quv jarayonida tegishli sohaga oid maxsus fanlarni ham hisobga olish bilan belgilanadi.

ESP (English for Specific Purposes – maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) shu qadar keng qamrovli soha ekanki, uning barcha jihatlarini bir vaqtning o'zida to'liq o'rganib bo'lmaydi. Shuningdek, kasbga yo'naltirilgan ingliz tili (EOP) paydo bo'lganidan buyon o'qituvchi maqomidagi tub o'zgarishlarni ham alohida ta'kidlash lozim. EOP o'qituvchisining faoliyati EOP tinglovchilarining ehtiyojlariga yo'naltirilgani sababli, uning asosiy maqsadi ushbu ehtiyojlarni aniqlash va samarali tarzda qondirishdan iboratdir. D.M. Isroilovning olib borgan tadqiqotlari natijasida aynan yuqorida

keltirilgan muommoga yechim uchun topilgan bo'lib, u "Fields of need" ya'ni GE va EOP o'rtasidagi bog'likning muhimligi, leksik birliklarning har ikki maqsadda ham ahamiyat berib o'rganish zarurligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, D.M Isroilovning ta'kidlashicha, kasbga yo'naltirilgan ingliz tili (EOP) va umumiy maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili (GE) o'rtasida ma'lum farqlar mavjud. Biroq EOP va GE bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, mazkur ikki yo'nalish o'zaro bir-birini to'ldiradi. Talaba umumiy maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilidagi bazaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmas ekan, kasbga yo'naltirilgan ingliz tilida (EOP) to'laqonli muloqot qila olmaydi. Yuqoridagi tahlil va fikrlardan ko'rinadiki, har bir chet tilini o'qitishda, leksik kompetensiyani roli va ahamiyati katta. Shuning uchun ham leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi muammoli vaziyatlar dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot aralash metodologiya (mixed methods) asosida tashkil etildi, ya'ni sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) yondashuvlar o'zaro uyg'unlashtirildi. Bunday yondashuv tadqiqot muammosini har tomonlama yoritish, olingan natijalarning ishonchligini va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida nazariy hamda empirik metodlar ketma-ket va uzviy bog'liqlikda qo'llanildi.

Nazariy bosqichda tahlil va sintez metodi asosiy metod sifatida qo'llanildi. Ushbu metod orqali ingliz tilida sohaviy leksik kompetensiyani tushunchasining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari va pedagogik ahamiyati aniqlashtirildi. Taqqoslash metodi yordamida turli mualliflarning qarashlari solishtirilib, tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Empirik bosqichda bir nechta amaliy metodlardan foydalanildi. Jumladan, so'rovnomma metodi talabalarning sohaviy leksik kompetensiya darajasi, o'qitish jarayonida uchrayotgan qiyinchiliklari va ehtiyojlarini aniqlash maqsadida qo'llanildi. Ushbu metod subyektiv fikrlarni tizimlashtirish va o'quv jarayonidagi real holatni aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, diagnostik testlar yordamida talabalar sohaviy leksikani bilish, tushunish va amaliy nutqda qo'llash ko'nikmalarining boshlang'ich (pre test) va yakuniy (post-test) darajasi aniqlandi. Diagnostik testlar tadqiqot natijalarini aniq raqamlar asosida baholashga xizmat qildi. Pedagogik tajriba (eksperiment) metodi esa sohaviy leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan taklif etilgan yondashuv va mashqlar samaradorligini tekshirish maqsadida o'tkazildi. Tajriba jarayonida kasbiy yo'naltirilgan matnlar, terminologik mashqlar va kontekst asosidagi topshiriqlar qo'llanildi. Olingan empirik ma'lumotlar taqqoslash va matematik-statistik tahlil metodlari asosida qayta ishlanib, umumlashtirildi. Umuman olganda, tanlangan metodologiya tadqiqot maqsadiga mos bo'lib, muammoni nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish imkonini berdi hamda ilmiy xulosalar chiqarish uchun mustahkam asos yaratdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida olingan empirik ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ishtirokchi talabalar umumiy ingliz tili bo'yicha yetarli nazariy bilimlarga

ega bo'lishiga qaramay, ular sohaviy leksik birliklarni anglash va amaliy nutqda qo'llashda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Boshlang'ich test (pre-test) natijalari talabalarning kasbiy terminlar bilan ishlash, mutaxassislikka oid matnlarni tushunish va ularni kontekstda qo'llash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganini tasdiqlandi.

Pedagogik tajriba jarayonida sohaviy leksikani rivojlantirishga qaratilgan kasbiy yo'naltirilgan matnlar, terminologik mashqlar, multimedia materiallar hamda kontekst asosidagi topshiriqlar tizimli ravishda qo'llanildi. Ushbu yondashuv talabalarni faqat terminlarni yodlashga emas, balki ularni real kasbiy vaziyatlarda anglash va qo'llashga yo'naltirdi. Natijada talabalar faol leksik zaxirasining bosqichma-bosqich kengaygani va terminlardan foydalanishdagi ishonchligi ortgani kuzatildi. Yakuniy test natijalari (pre) avvalgi test ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, sohaviy leksikani tushunish, aniqlash va amaliy nutqda qo'llash darajasida ijobiy o'sish mavjudligini ko'rsatdi. Statistik tahlil natijalari tajriba davomida qo'llanilgan pedagogik yondashuvning samaradorligini tasdiqlab, o'zgarishlar tasodifiy emas, balki maqsadli tashkil etilgan ta'lim jarayoni bilan bog'liq ekanini ko'rsatdi. Demak, sohaviy leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonini maqsadli rejalashtirish va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida sohaviy leksik kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb pedagogik muammo bo'lib, uni samarali hal etish puxta rejalashtirilgan va tizimli yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar umumiy ingliz tiliga oid bilimlarga ega bo'lishiga qaramay, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan terminologik birliklarni tushunish va ularni nutqiy jarayonda qo'llashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Sohaviy leksika talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Aynan terminlar, kasbiy iboralar va mutaxassislikka oid tushunchalar orqali talabalar o'z fikrini aniq, mantiqli va professional tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, sohaviy leksikani kontekst asosida, ya'ni kasbiy vaziyatlar, autentik matnlar va real kommunikativ topshiriqlar orqali o'rgatish talabalarning nafaqat passiv, balki faol leksik zaxirasini ham sezilarli darajada kengaytiradi. Bu esa ularning akademik va kasbiy muhitga moslashuvini yengillashtiradi. Tadqiqot natijalari sohaviy leksikani o'qitishda interaktiv metodlar va multimedia vositalaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqladi. Video, audio, vizual materiallar va raqamli platformalar orqali berilgan terminologik birliklar talabalar tomonidan tezroq o'zlashtirilishi va uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanishi kuzatildi. Umuman olganda, ingliz tilida sohaviy leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish istiqbolli deb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Galskova, N. D., & Gez, N. I. (2006). Teoriya obucheniya inostrannym yazykam: Lingvodidaktika i metodika (3rd ed.). Moscow: Akademiya. ISBN 5-7695-2969-5. (pp. 289–294).
2. Isroilova, D. M. (2018). Organization and implementation of a "special course" for teaching professionally oriented language in master's programs. *Eastern European Scientific Journal*, (6), 155–161.
3. Jalolov, J. J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi. ISBN 978-9943-02-498-4. (pp. 158–159).
4. Khutorskoy, A. V. (2003). Klyuchevye kompetentsii kak komponent lichnostno-orientirovannoy paradigmy obrazovaniya. *Narodnoe obrazovanie*, (2), 55–61.
5. Kunanbayeva, S. S. (2010). Teoriya i praktika sovremennogo inoyazychnogo obrazovaniya. Almaty. ISBN 978-601-270-038-1. (pp. 56–68).

6. Littlewood, W. (2013). Developing a context-sensitive pedagogy for communication-oriented language teaching. Hong Kong: Hong Kong Baptist University. (22 p.).
7. Milrud, R. P. (2005). Metodika prepodavaniya angliyskogo yazyka. English teaching methodology: Uchebnoe posobie dlya vuzov. Moscow: Drofa. ISBN 5-7107-8495-8. (pp. 198–199).
8. Shchukin, A. N. (2011). Metodika obucheniya rechevomu obshcheniyu na inostrannom yazyke: Uchebnoe posobie dlya prepodavateley i studentov yazykovykh vuzov. Moscow: Ikar. ISBN 978-5-7974-0259-6. (pp. 152–155).